

# SCIENCE

PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

## Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

Jild 3, Son 11

**2023**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 11 (3)-2023*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### *12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳақимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Тошкент давлат юридик университети.

### *13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги

педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

### *19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

### *22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодири Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

### *23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

## **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.  
Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
масъулияти чекланган жамият.

## **Таҳририят манзили:**

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

Телеграм канал: [https://t.me/scienceproblems\\_uz](https://t.me/scienceproblems_uz)

## МУНДАРИЖА

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

*Kucharov Jamshid Qulnazarovich*

ROSSIYANING PAXTA YETISHTIRISH BORASIDAGI SINOV-TAJRIBALARI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR (TURKISTON TO'PLAMI MATERIALLARI ASOSIDA) ..... 11-14

*Taʼbaev Amirbek Ashirbaevich*

Б.Х.КАРМИШЕВА АСАРЛАРИДА “ИЛК ҚАБИЛАЛАР”ГА ОИД ЭТНОНИМЛАР МАСАЛАСИ ..... 15-23

*Ҳамаев Нодирбек Мўминович*

ТУРКИСТОНДА ИСТИҚЛОЛ УЧУН КУРАШНИНГ РИВОЖЛАНИБ БОРИШИ ВА УНИНГ МАТБУОТДА ЁРИТИЛИШИ (1920-1924) ..... 24-32

*Tilavova Shahnoza Salohitdinovna*

XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGIDA JADIDLARNING FAOLIYATI ..... 33-36

*Қозоқов Тоҳиржон Қодиралиевич*

НАМАНГАНДА ҚОЗИЛАР ВА СУДЛАР ТАРИХИ ..... 37-42

*Артикбаев Ойбек Салимахамаатович*

ЎЗБЕК-ҚОЗОҚ ЭТНОМАДАНИЙ АЛОҚАЛАРИНИНГ ОИЛАВИЙ УРФ-ОДАТ ВА МАРОСИМЛАРДА НАМОЁН БЎЛИШИ (XX АСР ТОШКЕНТ ВОҲАСИ МИСОЛИДА) ..... 43-56

*Atavullayeva Shaxlo Musoyevna*

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BIRINCHI KONSTITUTSIYASINING YARATILISH TARIXI ... 57-62

### 8.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

*Қўчқаров Файзулло Абдужабборович*

ХОРИЖИЙ ИНВЕСТИЦИЯЛАР – АГРАР СОҲАНИ ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ ..... 63-70

*Shao Junling*

ANALYSIS OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF UZBEKISTAN'S REGIONAL ECONOMY .. 71-76

*Ashirov Nurmurod Qulmatovich*

RAQAMLI TECHNOLOGIYALARDAN KENG KO'LAMDA FOYDALANISHDA BANK TIZIMINI IMKONIYATLARINI OSHIRISH YO'LLARI ..... 77-82

*Togayev Salim Sobirovich*

BANK XIZMATLARIGA BO'LGAN ISHONCHNI OSHIRISH YOHUD MIJOZNI JALB QILISHNING SAMARALI YO'LLARI ..... 83-89

*Саттаров Ғанижон Озодович*

МИНТАҚА РАҚОБАТБАРДОШЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА ЭКСПОРТ САЛОҲИЯТИДАН ФОЙДАЛАНИШ ОМИЛЛАРИ ..... 90-96

<i>Yakubova Samira</i> LEVERAGING PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIPS: STRATEGIES FOR OPTIMAL INVESTMENT FINANCING .....	97-102
<i>Abdualiyev Hamidulla Toxirjonovich</i> OLIY TA'LIM MUASSASASINING INNOVATSIYALARNI BOSHQARISH TIZIMIDAGI LOYIHALARNI BOSHQARISH OFISI .....	103-109
<i>Egamberdiyeva Salima Rayimovna</i> XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA AKTIVLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH .....	110-118
<i>Xolmamatov Diyor Haqberdievich</i> SANOAT KORXONALARINING BOZORDAGI MAVQEINI BAHOLASHDA SPACE TAHLIL USULIDAN FOYDALANISH .....	119-127
<i>Gafurova Dilshoda</i> INNOVATIVE MANAGEMENT IN HIGHER EDUCATION: ASSESSING STRATEGIES AND IMPACTS .....	128-132
<i>Xomidov Abdugaffor Axmadjonovich</i> TA'LIM SOHASIDA LOYIHALARNI BOSHQARISH .....	133-139
<i>Raxmonov Mirvoxid Rajabovich</i> NAVOIY VILOYATI ASOSIY KAPITALIGA INVESTITSIYALAR TUZILISHI VA DINAMIKASI TAHLILI .....	140-149
<i>Boyjigitov Sanjarbek Komiljon o'g'li</i> DON VA DONNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA MARKETING XIZMATI SAMARADORLIGINI BAHOLASHDA SNW TAHLIL USULINING O'RNI VA UNI QO'LLASH XUSUSIYATLARI .....	150-159
<i>Aziza Umarova</i> AKSIYALARNI BIRLAMCHI OMMAVIY JOYLASHTIRISH (IPO) AMALIYOTI ORQALI MOLIYAVIY RESURSLARNI SHAKLLANTIRISHNING HORIJ TAJRIBASI .....	160-167
<i>Абдуллаев Бунёд Ўткирович</i> СУРХОҲДАРЁ ВИЛОЯТИДА ЭКОЛОГИК ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ .....	168-178
<i>Matjonov Bekjon Ravshonbekovich</i> SOME CHARACTERISTICS OF ENSURING FOOD SAFETY IN UZBEKISTAN .....	179-185
<i>Алиматова Наргис Абдухалиловна</i> КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШ-РАҚОБАТБАРДОШЛИК ОМИЛИ.....	186-197

### 09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

<i>Kobulniyazova Gulchexra Toshpulatovna</i> F. NITSSHE “HAYOT FALSAFASI” KONSEPSIYASI IJTIMOY RIVOJLANISHNING IRRATSIONAL ASOSI .....	198-204
<i>Qaxorov Pulotjon Xursanmurodovich</i> INSON MOHIYATI, UNING BIOLOGIK VA IJTIMOY TABIATI .....	205-211
<i>Турсунов Лочин Эркинович, Хакимова Дилноза Юсуфхоновна</i> РАЗВИТИЕ ПРАВОВОГО СОЗНАНИЯ У ЖЕНЩИН В УЗБЕКИСТАНЕ .....	212-218
<i>Urinboyev Dilmurod Tura o'g'li</i> HUQUQIY FAOLLIK VA HUQUQIY MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH MUOMMOLARI.....	219-225
<i>Яздонов Зикирилло Шукуруллоевич</i> АЛ-ҲАКИМ АТ-ТЕРМИЗИЙНИНГ СЎФИЁНА ҚАРАШЛАРИ ВА МАЛОМАТИЙЛИККА МУНОСАБАТИ .....	226-231
<i>Nabiyev Maxsud Abdumannonovich</i> IQTISODIY MADANIYATNING MAZMUNIVAMOHIYATI .....	232-238
<i>Haydaraliyev Shuhratjon</i> MARKAZIY OSIYODA MILLATLARARO MUNOSABATLARNING MILLIY VA MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI .....	239-243
<i>Хамраев Сардорбек Шарафутдинович</i> ЭКОТУРИЗМ ЖАРАЁНЛАРИНИ РИВОЖЛАНИШИНИНГ ТАРИХИЙ ЭВОЛЮЦИЯСИ..	244-250
<i>Xashimov Sheraxon Jo'raxonovich</i> O'ZBEKISTONNING XALQARO IMIDJINI YUKSALTIRISHDA MILLIY TURIZMDAGI EKOLOGIK TURIZMNING TUTGAN O'RNI .....	251-260
<i>Хатамова Рашида Закиржановна</i> ПАТРИОТИЗМ КАК ЭЛЕМЕНТ КУЛЬТУРЫ СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЕЖИ .....	261-266
<i>Патиев Холдор Икромович</i> ЖАДИДЧИЛИК ҚАРАШЛАРИ НЕГИЗИДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЙЎНАЛИШЛАРНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШИ ВА ЖАМИЯТДА РИВОЖЛАНИШИ .....	267-275
<i>Ismoilova Hayitxon Maxammadjonovna</i> FARG'ONA VODIYSIDA OILA URF-ODATLARI VA QADRIYATLARINING TRANSFORMATSIYASI VA UNING IJTIMOY JARAYONLARDA NAMOYON BO'LISH XUSUSIYATLARI .....	276-280
<i>Raximova Rayxon Abdurasulovna</i> GLOBALLASHUV VA OILA AXLOQIY MADANIYATINING O'ZARO ALOQADORLIGI .....	281-287
<i>Raxmankulov Farhod Raximkulovich</i> MULKDORLAR QATLAMIDA IJTIMOY MAS'ULIYAT TUYG'USINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI .....	288-292
<i>Shirinov Anvar Qanoatovich</i> MARKAZIY OSIYODA INSON TARAQQIYOTINING DOLZARB MASALALARI .....	293-299

*Xandamova Marifat Akramovna*  
 “OSOR AL-BOQIYA” – ABU RAYHON BERUNIY ILMIY IJODINING DURDONASI..... 300-304

*Teshaboev Muhiddin Marifovich*  
 IJTIMOY DAVLATDA IJTIMOY ADOLATNI TA’MINLASH VA IJTIMOY INSTITUTLARNING  
 MAQSADI ..... 305-311

*Karimov Rahmat Rahmonovich, Bekbayev Rauf Rustamovich*  
 MADANIY ANTROPOLOGIYA FANINING PREDMETI VA IJTIMOY-GUMANITAR FANLAR  
 TIZIMIDAGI O’RNI ..... 312-320

*Talapov Baxriddin Alijanovich*  
 DEMOKRATIYA VA SHARQONA BOSHQARISHNING ETNODIFFERENSIAL  
 XUSUSIYATLARI ..... 321-326

### **10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ**

*Ayuzmuratova Nurjamal Dastembayeva*  
 КАРАКАЛПАКСКИЕ ЖЕНСКИЕ ЛИЧНЫЕ ИМЕНА..... 327-332

*Olga Filippova*  
 ADDING REDUNDANCY FUNCTIONS TO CLUSTERED IMPLEMENTATION ..... 333-345

*Egamnazarova Zaynab Xolmurod qizi*  
 INGLIZ TILIDAGI RIELTORLIK FAOLIYATIGA OID TERMINLARNING O’ZBEK TILI O’ZLASHISH  
 MASALALARI ..... 346-351

*Narzieva Gulnoza Akbarovna*  
 LEKSIK BIRLIKLARDA MILLIY – MADANIY KOD IFODASI ..... 352-357

*Qodirova Mukaddas Tog’ayevna, Ibragimova So’g’diyona Ikrom qizi*  
 INGLIZ-O’ZBEK TILLARIDA VERBAL VA NOVERBAL MULOQOT TABULARINING  
 QO’LLANILISHI ..... 358-362

### **12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР**

*Tўраев Сардор Абдихаким ўғли*  
 ИНТЕРНЕТ ТАРМОҒИДАН ФОЙДАЛАНИБ СОДИР ЭТИЛАДИГАН ЖИНОЯТЛАРНИНГ  
 ОЛДИНИ ОЛИШНИНГ УМУМИЙ ЧОРАЛАРИ ..... 363-371

*Атаев Шокир Куранбаевич*  
 ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИНИ МАЪМУРИЙ-ҲУҚУҚИЙ ТАРТИБГА СОЛИШ  
 АСОСЛАРИНИ ЯНАДА ЛИБЕРАЛЛАШТИРИШ ..... 372-377

*Юсупов Илхомжон Ибодиллаевич*  
 ҲУҚУҚИЙ АНИҚЛИК ПРИНЦИПИНING АЙРИМ НАЗАРИЙ - ҲУҚУҚИЙ ЖИҲАТЛАРИ  
 ХУСУСИДА ..... 378-385

### **13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ**

*Adizova Nigora Baxtiyorovna*  
 MUAMMOLI TA’LIM ASOSIDA BOSHLANG’ICH SINIF O’QUVCHILARINING DIVERGENT  
 TAFAKKURINI TARBIYALASH VA RIVOJLANTIRISH ..... 386-390

<i>Tkacheva Anastasiya Aleksandrovna</i> O'ZBEKISTON OLIY O'QUV YURLARI TALABALARINING IJTIMOYIY-MADANIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH UCHUN ISPAN TILINI O'QITISHDA VIRTUAL REALLIKDAN FOYDALANISH .....	391-400
<i>Uralova Muxabbat Sanjar qizi</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHISINING IJODIY-METODIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH.....	401-406
<i>Kenjabaev Jahongir Abdusalimovich</i> METHODOLOGY FOR TEACHING ENGLISH BASED ON INTERNET RESOURCES .....	407-411
<i>Abdusamatov Alisher Sobirovich</i> TA'LIMNI LOYIHALASHTIRISH JARAYONIGA SEMIOTIK YONDASHUV .....	412-417
<i>Ibragimova Ehtiyotxon Ismailovna, Sobirova Nargiza Numonjonovna</i> TA'LIMDA NOVERBAL VOSITALARNING O'RNI .....	418-422
<i>Babayeva Maxfuza Abduvaitovna</i> TA'LIMDA FANLARARO BOG'LANISHNING AHAMIYATI .....	423-429
<i>Nazarova Zarrina Allaberdiyevna</i> MAKTAB O'QITUVCHILARINING KREATIV SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI.....	430-435
<i>Jumayeva Gulnora Tursunpulatovna</i> O'QITUVCHILARINING KASBIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING SHART- SHAROITLARI .....	436-442
<i>Умаров Азиз Авазович</i> ИСПОЛЬЗОВАНИЕ АУДИОВИЗУАЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА .....	443-447
<i>Ahmadjonova Odina Anvarjon qizi</i> INGLIZ TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV NUTQIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI(STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYASI MISOLIDA).....	448-453
<i>Otamurodova Shamsu Qamar Otamurodovna</i> DIVERSIFIKATSIYA TAMOYILI ASOSIDA TALABALARNING KREATIVLIGINI YUZAGA CHIQRISH METODIKASI .....	454-461
<i>Komilov Nodirbek Bokijonovich</i> THE IMPORTANCE OF THE HISTORY OF MEDICINE IN INCREASING THE EXCLUSIVE COMPETENCE OF FOREIGN STUDENTS .....	462-466
<i>Sapieva Nargiza Mamayusufovna</i> IQTIDORLI O'QUVCHILARNING KREATIV FIKRLASH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNI IJTIMOIY-PEDAGOGIK QO'LLAB-QUVVATLASH .....	467-478
<i>Norqobilova Rayxona Davlatovna</i> XORIJIY FANLARDAN BOLALARNING MAKTABGA TAYYORGARLIGINING DIAGNOSTIKASI .....	479-484

---

<i>Mamatkodirov Maxammadali Mamatisakovich</i> SINFDAN TASHQARI MASHG'ULOTLAR UCHUN RAQAMLI VOSITALAR VA PLATFORMALARNI HAMDA O'QITISH USULLARINI TANLASH .....	485-492
<i>Irgasheva Umida Raimjanovna</i> TALABALAR KASBIY NUTQ KOMPETENTSIYASINI STEAM TEXNOLOGIYASI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH .....	493-498
<i>Turayeva Lolaxon Yuldashevna</i> ERKIN MEXANIK TEBRANISHLARNI MAPLE DASTURIY VOSITASI YORDAMIDA O'RGANISH VA NAMOYISH ETISH .....	499-505
<i>Kushakova Gulnora Egamkulovna</i> TALABA YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI .....	506-510
<i>Kenjabayeva Dilafruz Abdisalimovna</i> OLIY O'QUV YURTI SHAROITIDA ZAMONAVIY O'QITUVCHINI TAYYORLASHNING DEONTOLOGIK KOMPONENTI .....	511-518
<i>Xasanova Gulnoza Raxatjanovna</i> KREDIT-MODULLI TA'LIM TIZIMI JARAYONIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISH MUAMMOLARI .....	519-525

*08.00.00 – Иқтисодиёт фанлари*

**Xolmamatov Diyor Haqberdievich**  
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti  
Marketing kafedrası dotsenti  
e-mail: [xolmamatov\\_d@mail.ru](mailto:xolmamatov_d@mail.ru)

### **SANOAT KORXONALARINING BOZORDAGI MAVQEINI BAHOLASHDA SPACE TAHLIL USULIDAN FOYDALANISH**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada sanoat korxonalarining, xususan, mebel ishlab chiqaruvchi korxonalarining bozordagi mavqeini baholashda SPACE tahlildan foydalanishning o'ziga xos jihatlari yoritilgan. Shuningdek, SPACE tahlilning metodologik jihatlari, tahlilni amalga oshirish bosqichlari, korxonalar amaliyotida qo'llanishi bo'yicha tadqiqot natijalari va xulosalar bayon qilingan.

**Kalit so'zlar.** SPACE tahlili, bozor jozibadorligi, moliyaviy barqarorlik, raqobat ustunligi, muhit barqarorligi, brend mavqei, tashqi muhit, bozordagi strategik mavqe.

---

**Kholmamatov Dior Hakberdievich**  
Samarkand Institute of Economics and Service  
Associate Professor of the Department of Marketing

### **USE OF THE SPACE ANALYSIS METHOD IN ASSESSING THE MARKET POSITION OF INDUSTRIAL ENTERPRISES**

**Abstract.** This article highlights the specific aspects of using SPACE analysis in assessing the market position of industrial enterprises, in particular, furniture manufacturing enterprises. Also, methodological aspects of SPACE analysis, stages of analysis implementation, research results and conclusions on its application in enterprise practice are described.

**Keywords.** SPACE analysis, market attractiveness, financial stability, competitive advantage, environmental stability, brand position, external environment, strategic position in the market.

---

**Холмаматов Диёр Хакбердиевич**  
Самаркандский институт экономики и сервиса  
Доцент кафедры маркетинга

### **ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕТОДА SPACE АНАЛИЗА ПРИ ОЦЕНКЕ РЫНОЧНОГО ПОЛОЖЕНИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ**

**Аннотация.** В данной статье освещены специфические аспекты использования SPACE-анализа при оценке рыночного положения промышленных предприятий, в частности, предприятий по производству мебели. Также описаны методологические аспекты SPACE-анализа, этапы проведения анализа, результаты исследования и выводы по его применению в практике предприятия.

**Ключевые слова.** SPACE анализ, рыночная привлекательность, финансовая стабильность, конкурентное преимущество, экологическая стабильность, позиция бренда, внешняя среда, стратегическое положение на рынке.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I11Y2023N16>

**Kirish.** Mamlakatimiz iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida sanoat sohasidagi korxonalar soni va ishlab chiqarish hajmi keskin oshib bormoqda. 2019 yilda 69451 ta, 2020 yilda 80886 ta, 2021 yilda 95416 ta, 2022 yilda 100849 ta sanoat korxonasi faoliyat yuritgan bo'lsa, 2023 yilning 1 iyul holatiga ko'ra, mamlakatimizda ro'yxatdan o'tgan sanoat sohasidagi korxonalar soni 108080 tani tashkil etgan. Sanoat sohasini yanada rivojlantirish, mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlanishini ta'minlash borasidagi aniq maqsad va vazifalar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli Farmonida o'z aksini topgan. "O'zbekiston-2030" strategiyasining **47-maqsadiga ko'ra**, "mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish va ilg'or texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish" va **48-maqsadga ko'ra**, "sanoatning "drayver" sohasini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to'liq ishga solish" belgilangan [1].

Sanoat sohasining rivojlanishi bilan birga faoliyat yuritayotgan biznes subyektlari o'rtasida raqobat kuchayib bormoqda. Har bir sanoat korxonasi bozordagi raqobatbardoshligi, bozor jozibadorligi va bozordagi strategik mavqeyi juda muhim ko'rsatkichlarga aylanmoqda. Shundan kelib chiqqan holda, faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarining bozordagi strategik o'rni va raqobatbardoshligini baholashda zamonaviy strategik tahlil usullaridan foydalanish dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda.

Mazkur maqolada sanoat korxonalarining mikro va makro darajada biznes sohasining jozibadorligini baholash va korxonaning bozordagi raqobatbardoshligini aniqlash imkonini beradigan zamonaviy strategik tahlil usullaridan biri bo'lgan SPACE tahlilning mohiyati, amaliy jihatdan qo'llanilishi yoritilgan.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** SPACE tahlili zamonaviy strategik tahlil usullaridan biri bo'lib, u mikro va makro darajada biznes sohasining jozibadorligini baholash va korxonaning bozordagi raqobatbardoshligini aniqlash imkonini beradi [3, 34-37 b.].

Strategik tahlil strategik rejalashtirishning eng muhim protsedurasidir. Samarali kompaniya strategiyasini shakllantirishning asosi xo'jalik yurituvchi subyektning tashqi va ichki muhitini tahlil qilish natijalaridir [5, 29 b.].

Korxonaning tashqi muhiti kompaniyaning ma'lum bir vaqtda yoki kelajakdagi davrlardagi faoliyatiga ta'sir qiluvchi ko'plab omillarni ifodalaydi. Bu omillar kompaniyadan tashqarida mavjud bo'lib, uning faoliyatidan qat'iy nazar paydo bo'ladi. Kompaniyaning ichki muhiti kompaniya ichida joylashgan umumiy muhitning bir qismidir. Bu kompaniya faoliyatiga eng to'g'ridan-to'g'ri va doimiy ta'sir ko'rsatadi [4, 26 b.].

SPACE usuli – bu bozor pozitsiyasini tahlil qilish, o'rta va kichik korxonalar uchun optimal strategiyani tanlash uchun mo'ljallangan keng qamrovli usul. SPACE usuli korxonalar faoliyatini baholash mezonlarining to'rtta guruhini (belgilarini) aniqlashni nazarda tutadi.

## 1-jadval

## SPACE usulida qo'llaniladigan asosiy mezonlar ro'yxati

Guruh	Mezonlar
Korxonaning moliyaviy kuchi (moliyaviy barqarorlik)	ishlab chiqarish xarajatlari; investitsiya qilingan kapitalning rentabelligi; foyda barqarorligi; investitsiyalarning daromadliligi; likvidlik; qarz tuzilishi; kapitallashuv darajasini oshirish va mablag'larni jalb qilish qobiliyati.
Korxonaning raqobatbardoshligi va uning bozordagi o'rni (raqobat ustunligi)	bozor va uning hajmi; korxonaning bozor ulushi va uning dinamikasi; mahsulot assortimenti; marketing faoliyatini amalga oshirish qobiliyati, narxlar va xarajatlar darajasiga faol ta'sir ko'rsatish qobiliyati; iste'molchilar bilan aloqa qilish; sotish rentabelligi.
Kompaniya faoliyat yuritayotgan sohaning jozibadorligi (sanoat jozibadorligi)	sohadagi raqobat vaziyatining xususiyatlari; sanoatning hayot davri bosqichi; sanoat rivojlanishining bozor sharoitiga bog'liqligi; sanoatning ijtimoiy jozibadorligi; sanoat mahsulotlaridan boshqa tarmoqlarda foydalanish.
Kompaniya faoliyat ko'rsatayotgan sohaning barqarorligi (muhit barqarorligi)	sanoat hayotiy siklining davomiyligi va rivojlanish bosqichi; sanoatda marketing va reklama imkoniyatlari; foyda barqarorligi (rentabellik), xorijiy kapitalning ta'sir darajasi.

SPACE-tahlili korxonaning tashqi va ichki muhitining tarkibiy qismlarini 4 o'lchovli tahlil qilish asosida raqobat strategiyasini tanlash uchun mo'ljallangan. Jumladan, differentsiatsiya strategiyasi ishlab chiqiladi. SPACE-tahlili sanoat korxonalarining mahsulot portfeli tahlili asosida yangi mahsulotlarni bozorga kiritish bo'yicha ishlab chiqiladigan strategiyalarning tayanchi bo'lib xizmat qiladi [6, 85-92 b.].

SPACE-tahlilidan korxonalar rahbariyati strategik qarorlar qabul qilishda foydalanishi mumkin. Tahlilning birinchi bosqichi: 4 ta o'lchovdagi har bir omilga ball beriladi. Moliyaviy barqarorlik va sanoat jozibadorligi (FS & IA) uchun 0 dan 5 gacha va muhit barqarorligi va raqobat ustunligi uchun (CA va ES) 0 dan -5 gacha ball belgilanadi.

Tahlilning ikkinchi bosqichida 4 ta toifadagi omillarning har biri uchun o'rtacha qiymat hisoblanadi. Hisoblangan vektor korxonaning bozordagi mavqeyi (pozitsiyasi)ni bildiradi (☆ belgi bilan belgilangan). Ma'lumotlar ekspert baholariga asoslanadi.

**Muhokama.** Mamlakatimiz sanoat sohasida mebel va yog'ochsozlik sanoati alohida o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 21 iyundagi "Respublika hududlarida mebelsozlik sanoatini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori mebel ishlab chiqaruvchilar faoliyatini qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Aytish joizki, mamlakatimiz mebel va yog'ochsozlik sanoati iqtisodiyotning eng jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan.

Bugungi kunda ushbu sohada asosan kichik va o'rta biznes subyektlari faoliyat yuritadi. Turar joy va tijorat ko'chmas mulklarini qurish sur'atlarining o'sib borishi mebelga bo'lgan ehtiyojning oshishiga olib kelmoqda. O'zbekiston aholisining mebel mahsulotlariga bo'lgan talabi yil sayin ortib bormoqda. Zamonaviy tendensiyalar mahalliy ishlab chiqaruvchilarni chetlab o'tmaydigan diqqatga sazovor yangiliklarni talab qiladi. Mebel bozorining umumiy bozor hajmining qariyb 90 foizi mahalliy mahsulotlar bilan qondirilmoqda.

Tadqiqotimizda Samarqand hududiy mebel bozorida yetakchi sanoat korxonasi bo'lgan "Gulobod mebel" MChJning bozordagi strategik mavqeyini baholashda SPACE-tahlilidan foydalanib, marketing strategiyalarini ishlab chiqish amalga oshirildi. Korxonaning bozordagi strategik mavqeyini baholash uchun ekspert sifatida korxonada faoliyat yuritayotgan iqtisod, marketing, savdo, logistika va ishlab chiqarish bo'limi mutaxassislari hamda "Marketing" kafedrasida professor-o'qituvchilari jalb qilindi.

Tashqi muhitning barqarorligi (ES - Environmental Stability). Muhit barqarorligini baholash uchun sanoat hayotiy siklining davomiyligi va rivojlanish bosqichi, sanoatda marketing va reklama imkoniyatlari, talabning o'zgaruvchanligi, raqobatchilar bosimi, raqobatlashuvchi tovarlar narxlar o'rtasidagi farq, o'rinbosar tovarlar bosimi, texnologik o'zgarishlar kabi ko'rsatkichlardan foydalaniladi (1-jadval).

1-jadval

**"Gulobod mebel" MChJda marketing muhitining barqarorligini baholash<sup>1</sup>**

Ko'rsatkichlar	daraja	ballar						daraja
		0	-1	-2	-3	-4	-5	
Mebel sanoatini rivojlanish darajasi	yuqori	0	-1	-2 ✨	-3	-4	-5	past
sanoatda marketing va reklama imkoniyatlari	yuqori	0	-1	-2 ✨	-3	-4	-5	past
talabning o'zgaruvchanligi	yuqori	0	-1 ✨	-2	-3	-4	-5	past
raqobatchilar bosimi	yuqori	0	-1	-2	-3 ✨	-4	-5	past
raqobatlashuvchi tovarlar narxlar o'rtasidagi farq	yuqori	0	-1	-2 ✨	-3	-4	-5	past
o'rinbosar tovarlar bosimi	yuqori	0	-1	-2	-3	-4 ✨	-5	past
texnologik o'zgarishlar	yuqori	0	-1 ✨	-2	-3	-4	-5	past

$$MB = -2 + (-2) + (-1) + (-3) + (-2) + (-4) + (-1) = -15/7 = -2,1$$

Tashkil etilgan ekspertlar tomonidan "Gulobod mebel" MChJ korxonasi muhit barqarorligini 7 ta omil asosida baholashi natijasida korxonada muhiti barqarorligi - 2,1 ni tashkil etmoqda.

Sanoatning jozibadorligi (IA - Industry Attractiveness). Sanoatning jozibadorligini baholashda mebel mahsulotlaridan boshqa tarmoqlarda foydalanish, foyda salohiyati, moliyaviy barqarorlik, ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish darajasi, bozorga kirish to'siqlari, mehnat unumdorligi, yetkazib beruvchilar va mijozlar bilan yanada qulayroq shartlarni muzokara qilish imkoniyatlari kabilarga e'tibor qaratiladi. Ayniqsa, mebel ishlab

<sup>1</sup> Ekspertlar bahosi asosida muallif tomonidan hisoblangan

chiqaruvchi korxonalarining jozibadorligini oshirish, sohaga investitsiyalarni jalb qilish, mahsulotlar differentsiatsiyasi, yangi mahsulotlarni bozorlarga kiritish, ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish, mahalliy xom ashyolarni chuqur qayta ishlashni yo'lga qo'yish muhim hisoblanadi (2-jadval):

2-jadval

“Globod mebel” MChJning sanoat jozibadorligini baholash<sup>1</sup>

Ko'rsatkichlar	daraja	ballar						daraja
		0	1	2	3	4	5	
mebel mahsulotlaridan boshqa tarmoqlarda foydalanish	kichik	0	1	2	3	4	5	yirik
sohaga investitsiyalarni jalb qilish	kichik	0	1	2	3	4	5	yirik
moliyaviy barqarorlik	past	0	1	2	3	4	5	yuqori
ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish darajasi	samarasiz	0	1	2	3	4	5	samarali
bozorga kirish to'siqlari	past	0	1	2	3	4	5	yuqori
mehnat unumdorligi	past	0	1	2	3	3	3	yuqori
etkazib beruvchilar va mijozlar bilan yanada qulayroq shartlarni muzokara qilish imkoniyatlari	past	0	1	2	3	4	5	yuqori

$$SJ=3+2+3+4+3+2+4=21/7=3,0$$

Bugungi kunda mamlakatimizdagi mebel ishlab chiqaruvchi korxonalarining sanoat jozibadorligi (IA - Industry Attractiveness) o'ta muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Sanoat jozibadorligi – bu bozorning ma'lum bir segmentida korxonaga uchun uzoq muddatli va barqaror savdo va foyda olish imkoniyatini tavsiflovchi tushunchadir. Sanoat jozibadorligi korxonaning ichki imkoniyatlari, moliyaviy ko'rsatkichlari, ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'ati, bozorga kirishda to'siqlarning mavjud yoki yo'qligi kabilar orqali aniqlanadi. Ekspertlar tomonidan “Gulobod mebel” MChJ korxonasining sanoat jozibadorligini baholash natijalari 3,0 ballni tashkil etdi.

SPACE-tahlilida ichki muhit ikkita ko'rsatkichlar to'plami bilan tavsiflanadi: Raqobat ustunligi (CA - Competitive Advantage). Raqobat ustunligini baholashda bozor va uning hajmi, korxonaning bozor ulushi va uning dinamikasi, mahsulot assortimenti, tovar hayotiy davri bosqichlari, tovar sifati, innovatsion sikl, mijozlarning sodiqligi, vertikal integratsiya kabi omillar o'rganiladi (3-jadval).

<sup>1</sup> Ekspertlar bahosi asosida muallif tomonidan hisoblangan

## 3-jadval

“Globod mebel” MChJning raqobat ustunligi holatini baholash<sup>1</sup>

Ko'rsatkichlar	daraja	ballar						daraja
		0	-1	-2	-3	-4	-5	
bozor va uning hajmi	katta	0	-1	-2	-3	-4	-5	kichik
korxonaning bozor ulushi va uning dinamikasi	katta	0	-1	-2	-3	-4	-5	kichik
tovar hayotiy davri bosqichlari	boshlang'ich	0	-1	-2	-3	-4	-5	yakuniy
tovar sifati	yuqori	0	-1	-2	-3	-4	-5	past
innovatsion sikl	boshlang'ich	0	-1	-2	-3	-4	-5	yakuniy
iste'molchilar sodiqligi	kuchli	0	-1	-2	-3	-4	-5	kuchsiz
vertikal integratsiya	past	0	-1	-2	-3	-4	-5	yuqori

$$RU = -2 + (-4) + (-2) + (-2) + (-1) + (-3) + (-3) = -17/7 = -2,4$$

Moliyaviy barqarorlik (FS - Financial Strength). Moliyaviy barqarorlikni tahlil qilishda ishlab chiqarish xarajatlari, investitsiya qilingan kapitalning rentabelligi, likvidlilik, zaruriy kapitalning mavjudligi, qarzdorlik koeffitsenti (Debt Ratio), mablag' oqimi (Cash Flow), moliyaviy risk kabi ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Moliyaviy barqarorlik bevosita korxonalarining marketing faoliyati samaradorligiga ham ta'sir qiladi. Shuning uchun moliyaviy barqarorlikni baholash natijalari asosida korxonalar marketing faoliyati samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillar aniqlab olinadi (4-jadval).

## 4-jadval

“Globod mebel” MChJning moliyaviy barqarorligini baholash<sup>2</sup>


Ko'rsatkichlar	daraja	ballar						daraja
		0	1	2	3	4	5	
ishlab chiqarish xarajatlari	past	0	1	2	3	4	5	yuqori
investitsiya qilingan kapitalning rentabelligi	past	0	1	2	3	4	5	yuqori
likvidlilik	past	0	1	2	3	4	5	yuqori
zaruriy kapitalning mavjudligi	past	0	1	2	3	4	5	yuqori
qarzdorlik koeffitsenti	past	0	1	2	3	4	5	yuqori
mablag' oqimi	kuchli	0	1	2	3	4	5	kuchsiz
moliyaviy risk	past	0	1	2	3	4	5	yuqori

<sup>1</sup> Ekspertlar bahosi asosida muallif tomonidan hisoblangan

<sup>2</sup> Ekspertlar bahosi asosida muallif tomonidan hisoblangan


$$MB=3+3+3+4+2+3+3=21/7=3$$

**Natijalar.** 4 ta yo‘nalishdagi ko‘rsatkichlar bo‘yicha amalga oshirilgan SPACE-tahlilining yakuniy bosqichida Excel dasturida EXCELFILES.SPACE orqali SPACE matrirsasi tuziladi. Matrirsada to‘rtta koordinatada egallangan o‘rin quyidagicha nomlanadi: 1) agressiv, 2) raqobatli, 3) konservativ, 4) himoyali.



**1-rasm. SPACE matrirsasi.**

Ushbu matrirsani grafik ko‘rinishida ham tasvirlash mumkin. “Gulobod mebel” MChJning bozordagi mavqeining strategik holatining grafigi 2-rasmda keltirilgan.



**2-rasm. “Gulobod mebel” MChJning bozordagi mavqeining strategik grafik tasviri**

Korxonaning bozordagi strategik mavqeining har bir holatiga ko'ra aniq marketing strategiyalari taklif etiladi 5-jadval.

5-jadval

**“Globod mebel” MChJning bozordagi strategik mavqeining qisqacha tavsifi**

Strategik mavqei	Strategik mavqeilarning qisqacha tavsifi
Agressiv	Bu mavqe muhit noaniqliklari bilan jozibador sanoatga xosdir. Moliyaviy salohiyat yordamida raqobat ustunligiga ega bo'ladi. Tahdidlar ahamiyatsiz, diqqatni belgilangan maqsadlarga erishishni ta'minlashga qaratish kerak. Asosiy marketing strategiyalari quyidagilarga qaratilishi maqsadga muvofiq: mebel ishlab chiqarish hajmini oshirish va sotish kanallarini kengaytirish; bozorni “qaymog'ini olish” va “batamom foydalanish” narx strategiyalarini qo'llash; bozorning yangi segmentlarini rivojlantirish; yangi tovar assortimentlarini ko'paytirish; brendni targ'ib qilish.
Raqobatli	Bu mavqe jozibador sanoatga xosdir. Korxonaga nisbatan o'zgaruvchan muhitda raqobat ustunligiga ega bo'ladi. Moliyaviy salohiyat muhim omil hisoblanadi. Moliyaviy yo'qotishlar bilan bog'liq tahdidlarga qarshi turish kerak. Asosiy strategiya quyidagilarga qaratilishi maqsadga muvofiq: muqobil moliyaviy resurslarni izlash; savdo tarmoqlarini rivojlantirish orqali sotishdan tushumlar hajmini oshirish; investitsiyalarni jalb qilish.
Konservativ	Bu mavqe odatda past o'sish sur'atlari bo'lgan barqaror bozorlarda kuzatiladi. Bu vaziyatda asosiy diqqat e'tibor, moliyaviy barqarorlikka qaratiladi. Eng muhim omil – bu mahsulotning raqobatbardoshligidir. Asosiy strategiya quyidagilarga qaratilishi maqsadga muvofiq: mahsulot sifatini yaxshilash bilan birga tannarxni kamaytirish; samarasiz bozor segmentlarida ishlab chiqarishni qisqartirish va istiqbolli bozorlarga chiqish; innovatsion tovarlar salmog'ini oshirib borish.
Himoyali	Bu mavqe raqobatchi jozibador sanoatda ishlayotgan, lekin mahsulot va moliyaviy raqobatbardoshlikka ega bo'lmagan vaziyatda vujudga keladi. Asosiy strategiya quyidagilarga qaratilishi maqsadga muvofiq: 1) tahdidlarni bartaraf etish mexanizmlariga alohida e'tibor berish; 2) samarasiz mahsulotlarni bozordan olib tashlash; 3) rebrending qilish.

**Xulosa.** Samarqand hududiy mebel bozori va faoliyat yuritayotgan korxonalarining ichki va tashqi marketing holati hamda strategik mavqei tahlili natijalariga asoslanib quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Mamlakatimiz mebel va yog'ochsozlik sanoati iqtisodiyotning eng jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri bo'lib, turar joy va tijorat ko'chmas mulklarini qurish sur'atlarining o'sib

borishi mebelga bo'lgan ehtiyojning oshishiga olib kelmoqda. Korxonalarining ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish, tovar assortimentini kengaytirish, yangi sotuv bozorlarni topish, mahalliy xom ashyolarni chuqur qayta ishlash hamda mahsulot ishlab chiqarishdagi to'g'ridan-to'g'ri yo'qotishlarni kamayishini ta'minlamoqda.

2. Mebel bozorining umumiy bozor hajmining qariyb 90 foizi mahalliy mahsulotlar bilan qondirilmoqda. Asosiy raqobat mahalliy brendlar o'rtasida bo'lmoqda. Mebel bozorida faoliyat olib borayotgan korxonalarining asosiy qismini kichik va o'rta korxonalar tashkil etadi.

3. Korxonalarda brend ta'sirini, ya'ni bozordagi mavqei mustahkamlash maqsadida marketing va reklama tadbirlarini kuchaytirish lozim.

4. Korxonalarda xom ashyolarni xarid qilish, tayyor mahsulotlarni yetkazib berishda ta'minotchilar, vositachilar va logistika infratuzilmasining rivojlanishi korxonalarining sotuvda tovar aylanmasining o'sishiga xizmat qilmoqda.

3. Korxonalarda tovar ishlab chiqarish va sotish bo'yicha aniq marketing strategiyalarini ishlab chiqish dolzarb masalaga aylanib bormoqda.

### **Адабиётлар/Литература/References:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi "“O'zbekiston-2030” strategiyasi to'g'risida”gi PF-158-sonli Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 21 iyundagi “Respublika hududlarida mebelsozlik sanoatini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-5155-sonli Qarori
3. Волкова С.П. Методика SPACE-анализа // Роль социально-гуманитарного знания в развитии интеллектуального потенциала нации: сборник научных трудов по материалам Международной научно-практической конференции 25 февраля 2021г. : Белгород : ООО Агентство перспективных научных исследований (АПНИ), 2021. С. 34-37. URL: <https://apni.ru/article/1977-metodika-space-analiza>
4. Галустова К.Ю. Внешняя среда как источник, необходимый для поддержания внутреннего потенциала организации // Политика, экономика и инновации, 2019. №6 С.29.
5. Королев Н.М. Разработка стратегического плана организации// Политика, экономика и инновации, 2018. №1 С.26
6. Степанова Л.Д. Анализ состояния компании: выявление сильных и слабых сторон деятельности// Политика, экономика и инновации, 2018. №2. С.114.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 11 (3) – 2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).